AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY DIPLOMATIYA VOSITALARI AQŞ–MARKAZIY OSIYO MUNOSABATLARI MISOLIDA

Zabixulla Saipov
siyosiy fanlar nomzodi (PhD), mustaqil izlanuvçi

Annotatsiya. Mazkur maqolada an'anaviy va zamonaviy diplomatiyaning nazariy-metodologik asoslari, şakllanish xususiyatlari va amaliy vositalari qiyosiy tahlil qilinadi. An'anaviy diplomatiyaning davlatlararo rasmiy munosabatlar, diplomatik vakillik, muzokaralar, diplomatik yozişmalar va protokolga asoslangan jihatlari yoritiladi. Zamonaviy diplomatiyaning rivojlanişi bilan boğliq holda jamoatchilik diplomatiyasi, yumshoq kuch, raqamli diplomatiya, iqtisodiy va ta'lim diplomatiyasi, madaniy aloqalar, influenser diplomatiyasi hamda norasmiy ekspert muloqotining xalqaro munosabatlardagi örni körib çiqilgan. Şuningdek, AQŞ va Markaziy Osiyo davlatlari örtasidagi munosabatlar misolida an'anaviy va zamonaviy diplomatik vositalarning qöllanilişi va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirişdagi ahamiyati tahlil etiladi. Xususan, ikki tomonlama diplomatik aloqalar, C5+1 muloqot platformasi, ta'lim, iqtisodiy hamkorlik, jamoatçilik bilan aloqalar va raqamli kommunikatsiya mexanizmlariga e'tibor qaratiladi. Maqolada zamonaviy diplomatiya an'anaviy diplomatiyaning muqobili emas, balki davlatning markaziy rolini saqlagan holda ko'p aktorli, ko'p kanalli va texnologik jihatdan kengaygan faoliyat şakli sifatida rivojlanayotganini asoslab berişga harakat qilingan.

Kalit sözlar: an'anaviy diplomatiya, zamonaviy diplomatiya, diplomatik vositalar, davlatlararo munosabatlar, jamoatçilik diplomatiyasi, yumşoq kuç, raqamli diplomatiya, iqtisodiy diplomatiya, ta'lim diplomatiyasi, madaniy diplomatiya, ta'sir ötkazuvchilar diplomatiyasi, norasmiy diplomatiya, AQŞ, Markaziy Osiyo, C5+1.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the theoretical and methodological foundations, evolutionary features, and practical instruments of traditional and contemporary diplomacy. It examines the key characteristics of traditional diplomacy, including formal interstate relations, diplomatic representation, negotiations, diplomatic correspondence, and protocol. In the context of the development of contemporary diplomacy, the article explores the role of public diplomacy, soft power, digital diplomacy, economic and educational diplomacy, cultural engagement, influencer diplomacy, and informal expert dialogue in international relations. Furthermore, drawing on the example of relations between the United States and the Central Asian states, it examines the application

DOI: 10.5281/zenodo.24240492

of traditional and contemporary diplomatic instruments and their significance for the development of regional cooperation. Particular attention is paid to bilateral diplomatic relations, the C5+1 dialogue platform, educational and economic cooperation, public engagement, and digital communication mechanisms. The article argues that contemporary diplomacy is not an alternative to traditional diplomacy but rather an expanded form of diplomatic activity that preserves the central role of the state while becoming increasingly multi-actor, multi-channel, and technologically diversified.

Keywords: traditional diplomacy, contemporary diplomacy, diplomatic tools, interstate relations, public diplomacy, soft power, digital diplomacy, economic diplomacy, educational diplomacy, cultural diplomacy, influencer diplomacy, informal diplomacy, United States, Central Asia, C5+1.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ теоретико-методологических основ, особенностей становления и практических инструментов традиционной и современной дипломатии. Рассматриваются такие характеристики традиционной дипломатии, как официальные межгосударственные отношения, дипломатическое представительство, переговоры, дипломатическая переписка и протокол. В контексте развития современной дипломатии анализируется роль публичной дипломатии, мягкой силы, цифровой дипломатии, экономической и образовательной дипломатии, культурных связей, дипломатии с участием инфлюенсеров, а также неформального экспертного диалога в международных отношениях. Кроме того, на примере отношений между США и государствами Центральной Азии исследуются применение традиционных и современных дипломатических инструментов и их значение для развития регионального сотрудничества. Особое внимание уделяется двусторонним дипломатическим связям, диалоговой платформе C5+1, образовательному и экономическому сотрудничеству, взаимодействию с общественностью и механизмам цифровой коммуникации. В статье обосновывается положение о том, что современная дипломатия не является альтернативой традиционной, а развивается как расширенная форма дипломатической деятельности, сохраняющая центральную роль государства и одновременно приобретающая многоакторный, многоканальный и технологически диверсифицированный характер.

Ключевые слова: традиционная дипломатия, современная дипломатия, дипломатические инструменты, межгосударственные отношения, публичная дипломатия, мягкая сила, цифровая дипломатия, экономическая дипломатия,

образовательная дипломатия, культурная дипломатия, дипломатия с участием инфлюенсеров, неформальная дипломатия, США, Центральная Азия, С5+1.

Kiriş. Diplomatiya xalqaro munosabatlarda davlatlar va boşqa siyosiy subyektlar örtasidagi muloqot, muzokara, kelişuv va manfaatlarni muvofiqlaştirişning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Uning tarixiy şakllari siyosiy hokimiyatning taşkil topişi, davlatlararo aloqalarning rivojlanişi va xalqaro tartibning şakllanişi bilan uzviy boğliq. Diplomatiya dastlab hukmdorlar örtasidagi yozişmalar, maxsus elçilar yuboriş, sulh va ittifoqlar tuziş kabi vositalar orqali namoyon bölgan bölsa, keyinçalik doimiy diplomatik vakolatxonalar, xalqaro taşkilotlar, köp tomonlama muzokaralar va jamoatçilik bilan bevosita muloqotni qamrab olgan murakkab tizimga aylandi.

Diplomatiyaning mazmuni va amaliyoti özgargan sari uning nazariy talqinlari ham kengaydi. An'anaviy yondaşuvlar, asosan, davlatlararo munosabatlar, muzokaralar, diplomatik vakillik va kuçlar muvozanatiga e'tibor qaratgan. Zamonaviy yondaşuvlarda esa davlatlar bilan bir qatorda xalqaro taşkilotlar, nodavlat institutlar, ekspertlar, biznes tuzilmalari va jamoatçilikning diplomatik jarayonlardagi iştiroki ham örganiladi (Sharp, 2009; Hocking et al., 2012).

Şu bilan birga, diplomatiyaning zamonaviylaşuvi davlatning xalqaro munosabatlardagi markaziy rolini yöqotganini anglatmaydi. Davlat taşqi siyosatning asosiy yönalişlarini belgilaydi, rasmiy diplomatik majburiyatlarni öz zimmasiga oladi va xalqaro kelişuvlar uçun javobgar bölib qoladi. Biroq zamonaviy şaroitda davlatlar öz maqsadlariga erişişida köproq iştirokçilar, vositalar va kommunikatsiya kanallaridan foydalanadi. Şu ma'noda, zamonaviy diplomatiyani davlat markazida qoladigan, ammo köp aktorli xususiyat kasb etadigan faoliyat sifatida tavsiflaş mumkin.

Uşbu maqolada an'anaviy va zamonaviy diplomatiyaning nazariy hamda amaliy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiliş, şuningdek, AQŞ–Markaziy Osiyo munosabatlari misolida diplomatik vositalarning amaliy qöllanilişini körsatişga harakat qilamiz.

An'anaviy diplomatiya. An'anaviy diplomatiya, eng avvalo, siyosiy hokimiyat vakillari va davlatlar örtasidagi rasmiy munosabatlarni taşkil etiş, muzokaralar olib boriş, kelişuvlarga erişiş va davlat manfaatlarini himoya qilişga qaratilgan faoliyat sifatida şakllangan. Uning asosiy vositalari elçilik missiyalari, diplomatik yozişmalar, rasmiy uçraşuvlar, muzokaralar, şartnomalar, vositaçilik va diplomatik protokolni öz içiga oladi.

Masalan, Fransua de Kalyer diplomatik muzokaralarni alohida mahorat va siyosiy bilim talab etadigan faoliyat sifatida talqin etib, diplomatning vazminligi, işonçliligi, kuzatuvçanligi va muzokara olib boriş qobiliyatiga alohida e'tibor

qaratgan (Callières, 1919). Ernest Mason Satou diplomatik amaliyotning institutsional jihatlarini, jumladan, diplomatik vakillik, rasmiy yozişmalar, protokol va diplomatik munosabatlarni yuritiş qoidalarini tizimlaştirgan (Satow, 1917). Harold Georj Nikolson esa diplomatiyani kuç işlatişdan köra muzokara, murosaga keliş, aniqlik va siyosiy vazminlikka asoslangan faoliyat sifatida izohlagan (Nicolson, 1939).

An'anaviy diplomatiyaning muhim tarixiy körinişlaridan biri saroy va aristokratik diplomatiya bölgan. Ayrim tarixiy davrlarda diplomatik aloqalar hukmdorlar, sulolalar va aristokratik elitalar örtasidagi şaxsiy munosabatlar orqali amalga oşirilgan. Şu sababli uşbu şaklni şartli ravişda "oq suyaklar" diplomatiyasi deb ham tavsiflaş mumkin. Bunda diplomatik munosabatlar faqat davlat nomidan yuborilgan Favqulodda va Muxtor Elçilar faoliyati bilan çeklanmagan, balki hukmdorlar örtasidagi qarindoşlik, nikoh ittifoqlari, saroy marosimlari va şaxsiy işonçga asoslangan aloqalarni ham qamrab olgan.

Tarixiy diplomatik yozişmalar ham an'anaviy diplomatiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hukmdorlar, podşohlar, malikalar, şohlar va boşqa siyosiy hokimiyat vakillari tomonidan yuborilgan maktublar, diplomatik murojaatlar, farmonlar, işonç yorliqlari va boşqa rasmiy hujjatlar davlatlararo munosabatlarni yuritiş vositasi bölib xizmat qilgan. Bunday yozişmalar Yevropa monarxiyalari bilan çeklanmagan; Markaziy Osiyo, Eron, Usmonlilar saltanati va boşqa siyosiy tuzilmalarda ham hukmdorlararo yozişmalar diplomatik munosabatlarning ajralmas qismi bölgan.

Diplomatiyaning xalqaro tizimdagi örni Hedley Bull tomonidan ham alohida ta'kidlangan. Uning yondaşuvida diplomatiya xalqaro jamiyatning asosiy muassasalaridan biri bölib, davlatlar örtasidagi muloqotni ta'minlaş va xalqaro tartibni saqlaşga xizmat qiladi (Bull, 1977). Adam Watson diplomatiyani siyosiy hamjamiyatlar örtasidagi uzluksiz muloqot sifatida talqin etib, uning xalqaro munosabatlarda muvofiqlaştiruvçi vazifasini körsatadi (Watson, 1982).

An'anaviy va zamonaviy diplomatiya vositalarining qiyosiy tavsifi

Mezon	An'anaviy diplomatiya	Zamonaviy diplomatiya
Rasmiy vakillik va yozişmalar	Hukmdorlar maktublari, elçilar, diplomatik missiyalar va rasmiy diplomatik yozişmalar.	Diplomatik vakolatxonalar, elektron yozişmalar va virtual diplomatik uçraşuvlar.
Protokol va marosimlar	Diplomatik protokol, saroy marosimlari, aristokratik (oq suyaklar) va sulolaviy diplomatiya.	Rasmiy protokol, virtual sammitlar, norasmiy va ekspertlik muloqoti (Track II).
Muzokara va kelişuvlar	Ikki tomonlama muzokaralar, maxfiy diplomatik aloqalar va davlatlararo şartnomalar.	Köp tomonlama muzokaralar, mintaqaviy platformalar, köp aktorli va gibrid muzokaralar.
Siyosiy-iqtisodiy ta'sir	Ittifoqlar, vositaçilik, kuçlar muvozanati, davlatlararo savdo va iqtisodiy bitimlar.	Yumşoq kuç, aqlli kuç, iqtisodiy va biznes diplomatiyasi, sarmoyaviy anjumanlar va hamkorlik.
Jamoatçilik va madaniy aloqalar	Rasmiy madaniy aloqalar va davlatlararo almaşinuv.	Jamoatçilik va madaniy diplomatiya, ta'lim almaşinuvi, diaspora va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik.
Axborot va raqamli kommunikatsiya	Diplomatik notalar, rasmiy bayonotlar va an'anaviy OAV.	Raqamli diplomatiya, Twitter/X diplomatiyasi (*Twiplomacy*), ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar va inflyuenserlar diplomatiyasi.
Global muammolar	Harbiy, iqtisodiy va boshqa xalqaro masalalar böyicha davlatlararo diplomatik muzokaralar.	Kiber, texnologik, iqlim, suv va tibbiyot diplomatiyasi.

1-Jadval. Manba: Diplomatiya nazariyasi va amaliyotiga oid xorijiy yetakçi olimlar asarlarining dastlabki tahlili asosida muallif tomonidan tizimlaştirişga harakat qilingan.

An'anaviy diplomatiyaning yana bir muhim jihati kuçlar muvozanati, milliy manfaat va strategik hisob-kitoblar bilan boğliq. Genri Kissinjer diplomatiya tarixini tahlil qilişda davlat manfaatlari, geosiyosiy raqobat va kuçlar muvozanatining xalqaro siyosatga ta'sirini yoritadi (Kissinger, 1994). Biroq bu yondaşuvni diplomatiyaning yagona nazariy talqini sifatida emas, balki uning strategik va tarixiy ölçamlarini tuşuntiruvçi yondaşuv sifatida köriş maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, an'anaviy diplomatiyaning asosiy xususiyati uning davlatlararo, rasmiy va institutsional xarakterga ega bölganidadir. Diplomatik tamsil etilganlik, muzokara, protokol, rasmiy yozişmalar va şartnomalar bugungi kunda ham öz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Şu bois an'anaviy diplomatiya zamonaviy diplomatiyaga qarama-qarşi yoki undan butunlay uzilgan hodisa emas, balki uning tarixiy va institutsional asosidir.

Zamonaviy diplomatiya. Zamonaviy diplomatiya xalqaro munosabatlarning murakkablaşuvi, globallaşuv, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanişi va davlatlararo özaro boğliqlikning kuçayişi natijasida tobora kengayib bormoqda. Uning doirasi rasmiy diplomatik vakolatxonalar va hukumatlararo muzokaralar bilan çeklanmay, jamoatçilik, xalqaro taşkilotlar, ekspertlar, biznes tuzilmalari va fuqarolik jamiyati bilan aloqalarni ham qamrab oladi.

Zamonaviy diplomatiya nazariyasida davlat va nodavlat iştirokçilar örtasidagi munosabatlar muhim örin tutadi. Pol Şarp diplomatiyani xalqaro jamiyatda turli siyosiy subyektlar örtasidagi muloqot va özaro munosabatlarni taşkil etuvçi amaliyot sifatida tahlil qiladi (Sharp, 2009). Brayen Hoking boşçiligidagi mualliflar jamoasi XXI asr diplomatiyasida davlat idoralari, xalqaro taşkilotlar hamda nodavlat

iştirokçilarning özaro ta'sirini hisobga oluvçi integratsiyalaşgan yondaşuv zarurligini ta'kidlaydi (Hocking et al., 2012).

Zamonaviy diplomatiyaning muhim yönalişlaridan biri jamoatçilik diplomatiyasidir. U xorijiy davlatlar jamoatçiligi bilan muloqot örnatiş, mamlakatning taşqi siyosati, qadriyatlari, madaniyati va xalqaro taşabbuslari haqida axborot beriş hamda ijobiy munosabat şakllantirişga qaratiladi. Yan Melissen jamoatçilik diplomatiyasini davlatlar va xorijiy jamoatçilik örtasidagi aloqalarni kengaytiruvçi zamonaviy diplomatik faoliyat sifatida körib çiqadi (Melissen, 2005). Nikolas Kall esa uşbu faoliyatning turli şakllari, jumladan, tinglaş, tarğibot, madaniy diplomatiya, almaşinuv va xalqaro eşittiriş yönalişlarini tizimlaştiradi (Cull, 2008, pp. 31–54).

Jamoatçilik diplomatiyasi bilan çambarças boğliq bölgan "yumşoq kuç" tuşunçasi davlatning boşqa subyektlarga majburlaş yoki moddiy rağbatlantirişdan köra, jozibadorlik va ijobiy qabul qiliniş orqali ta'sir körsatiş imkoniyatini ifodalaydi. Josef Nay "yumşoq kuç"ni davlatning madaniyati, siyosiy qadriyatlari va taşqi siyosatining jozibadorligi bilan boğlaydi (Nye, 2008, pp. 94–109). Şu bilan birga, u "yumşoq kuç"ni diplomatik institut yoki alohida diplomatik vakolatxona sifatida emas, balki taşqi siyosiy ta'sir resursi sifatida talqin qiliş lozim, deb ta'kidlaydi.

Diplomatiya vositalarining AQŞ–Markaziy Osiyo munosabatlaridagi amaliy körinişi

An'anaviy diplomatiya	Diplomatik munosabatlar, elçixonalar faoliyati, rasmiy taşriflar, ikki tomonlama muzokaralar va davlatlararo bitimlar.
Ekspert va norasmiy diplomatiya	Tahlil markazlari, akademik doiralar, fuqarolik jamiyati va ekspertlar örtasidagi muloqot (Track II).
Iqtisodiy diplomatiya	Savdo, investitsiyalar, biznes forumlari, energetika va transport-logistika loyihalari.
Jamoatçilik diplomatiyasi	Mintaqa mamlakatlari jamoatçiligi bilan bevosita muloqot, axborot dasturlari va jamoatchilik fikriga ta'sir körsatiş.
Köp tomonlama diplomatiya	C5+1 formati, mintaqaviy uçhaşuvlar va xalqaro taşkilotlar doirasidagi hamkorlik.
Madaniy va ta'lim diplomatiyasi	Fulbright, FLEX, universitetlararo hamkorlik, akademik almaşinuv va madaniy dasturlar.
Raqamli diplomatiya	AQŞ diplomatik vakolatxonalarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, raqamli kommunikatsiya va Twitter/X diplomatiyasi.

2-Jadval. Oçiq manbalar asosida muallif tomonidan tizimlaştirişga urunilgan.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanişi diplomatik kommunikatsiya şakllarini ham sezilarli darajada özgartirdi. Raqamli diplomatiya davlat idoralari va diplomatik vakolatxonalarning internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda boşqa raqamli platformalar orqali axborot tarqatişi, muloqot olib borişi va taşqi auditoriyalar bilan aloqalarini

rivojlantirişini anglatadi. Twitter/X diplomatiyasi yoki *"Twiplomacy"* uşbu jarayonning közga köringan şakllaridan biridir. Andreas Sandre diplomatlar va diplomatik muassasalar uçun Twitter platformasining kommunikatsion imkoniyatlarini tahlil qilgan (Sandre, 2013). Boşqa tadqiqotlarda esa ijtimoiy tarmoqlardagi heşteglar va raqamli muloqotning jamoatçilik diplomatiyasi hamda taşqi siyosiy kommunikatsiyadagi örni örganilgan (Collins, DeWitt and LeFebvre, 2019, pp. 78–96).

Raqamli diplomatiyaning rivojlanişi bilan blogerlar va inflyuenserlar ham xalqaro kommunikatsiya jarayonlarida köproq közga taşlanib bormoqda. Ular davlatning rasmiy diplomatik vakillari hisoblanmasalar-da, biroq katta auditoriyaga ega bölgan şaxslar sifatida jamoatçilik diplomatiyasi doirasidagi axborot va kommunikatsiya jarayonlariga jalb etilişlari mumkin. Şu sababli *"Influencer Diplomacy"* tuşunçasini rasmiy diplomatik faoliyatning örnini bosuvçi şakl sifatida emas, balki davlat va jamoatçilik örtasidagi kommunikatsiyani kengaytiruvçi vosita sifatida tuşuniş lozim.

Zamonaviy diplomatiyaning boşqa yönalişlariga iqtisodiy va biznes diplomatiyasi, madaniy va ta'lim diplomatiyasi, diasporalar bilan işlaş, köp tomonlama diplomatiya hamda ekspertlar örtasidagi norasmiy muloqot kiradi. "Track II" diplomatiyasi, xususan, hukumat vakolatiga ega bölmagan ekspertlar, olimlar va boşqa manfaatdor tomonlar örtasida muloqot olib boriş orqali rasmiy muzokaralarni mazmunan boyitişi mumkin.

Raqamli diplomatiya böyiça zamonaviy tadqiqotlar diplomatik faoliyatda texnologiyalar va yangi kommunikatsiya vositalarining ahamiyati ortib borayotganini körsatadi (Bjola and Manor, 2024, pp. 3–28). Biroq texnologik vositalarning kengayişi diplomatik jarayonlarning mazmunini töliq özgartirib yubormaydi: ular, avvalo, mavjud diplomatik vazifalarni bajarişning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Jadvaldan körinadiki, an'anaviy va zamonaviy diplomatiya örtasidagi farq ularning bir-birini inkor etişida emas, balki diplomatik faoliyatning qamrovi, iştirokçilari va vositalarida namoyon böladi. Masalan, elçixonalar, muzokaralar va diplomatik protokol zamonaviy diplomatiyada ham asosiy örnini saqlab qolgan. Şu bilan birga, raqamli kommunikatsiya, jamoatçilik bilan muloqot va ekspertlar iştiroki diplomatik faoliyatning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirib çiqarmoqda.

An'anaviy va zamonaviy diplomatiya vositalari AQŞ–Markaziy Osiyo munosabatlari misolida. AQŞ va Markaziy Osiyo davlatlari örtasidagi munosabatlar an'anaviy hamda zamonaviy diplomatiya vositalarining özaro uyğunlaşuvini kuzatiş imkonini beradi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erişganidan keyin AQŞ bilan diplomatik munosabatlarni şakllantiriş, siyosiy

muloqot örnatiş, xavfsizlik, iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantiriş mintaqaviy taşqi siyosatning muhim yönalişlaridan biriga aylandi.

Uşbu munosabatlarda an'anaviy diplomatiyaning asosiy vositalari bölmiş diplomatik e'tirof etiş, elçixonalar va konsulxonalarning faoliyati, rasmiy taşriflar, hukumatlararo muzokaralar va bitimlar muhim örin tutadi. Şu bilan birga, jamoatçilik diplomatiyasi, ta'lim almaşinuvi, iqtisodiy hamkorlik, raqamli kommunikatsiya va yetakçi mutaxassislar muloqoti kabi zamonaviy vositalar ham ikki tomonlama hamda mintaqaviy aloqalarning tarkibiy qismiga aylangan.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan vositalar AQŞning mintaqadagi diplomatik faoliyati birgina rasmiy hukumatlararo aloqalar bilan çeklanib qolmasligini namoyon etadi. Ayni paytda ularning har biri barça beş davlat bilan munosabatlarda bir xil darajada yoki bir xil natija bilan qöllaniladi, degan xulosaga keliş mumkin emas. Ularning mazmuni va samaradorligi alohida davlatlarning taşqi siyosiy ustuvorliklari, içki siyosiy şaroiti va AQŞ bilan hamkorlik darajasiga qarab farqlanadi.

An'anaviy diplomatiya doirasida AQŞning mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama siyosiy muloqoti, diplomatik vakolatxonalari va rasmiy taşriflari muhim ahamiyatga ega. Bunday mexanizmlar davlatlar örtasidagi siyosiy işonçni mustahkamlaş, manfaatlarni muvofiqlaştiriş va kelişuvlarni rasmiylaştirişga xizmat qiladi. Demak, zamonaviy diplomatik vositalar rivojlanganiga qaramay, rasmiy diplomatik vakillik va davlatlararo muzokaralar hamkorlikning asosiy institutsional poydevori bölib qolmoqda.

Köp tomonlama diplomatiyaning muhim namunasini 2015-yilda asos solingan C5+1 muloqot formati taşkil etadi. Uşbu platforma AQŞ va Markaziy Osiyoning beş davlati örtasida mintaqaviy masalalarni muhokama qiliş va muştarak manfaatlarga doir hamkorlikni rivojlantiriş uçun alohida diplomatik maydon yaratdi. C5+1 formatining ahamiyati şundan iboratki, u ikki tomonlama munosabatlarni töldiruvçi mintaqaviy muloqot mexanizmi vazifasini bajaradi.

Jamoatçilik, madaniy va ta'lim diplomatiyasi AQŞ–Markaziy Osiyo aloqalarining yana bir muhim yönalişidir. Ta'lim almaşinuvi dasturlari, universitetlararo hamkorlik, ilmiy va madaniy taşabbuslar orqali nafaqat davlat idoralari, balki talabalar, olimlar, öqituvçilar va keng jamoatçilik örtasida ham aloqalar şakllanadi. Bunday dasturlar uzoq muddatli ijtimoiy va muassasaviy tizimli aloqalar uçun zamin yaratişga qodir. Diplomatiyaning ushbu vositalarini "yumşoq kuç"ning amaliy namoyon bölişi sifatida baholaş mumkin, biroq ularning natijalarini faqat ijobiy imij yaratiş bilan çeklab qöymasdan, bilim va tajribalar almaşinuvi va professional tarmoqlarning rivojlanişi nuqtayi nazaridan ham körib çiqiş mumkin.

Iqtisodiy diplomatiya savdo, sarmoya, energetika, transport va logistika sohalaridagi manfaatlarni muvofiqlaştiriş orqali yaqqol namoyon böladi. Bu yönalişda hukumatlararo muzokaralar bilan bir qatorda biznes vakillari, kompaniyalar, moliyaviy institutlar va ekspertlar ham iştirok etadi. Natijada diplomatik faoliyatning iqtisodiy mazmuni kengayib, davlatlararo munosabatlar bilan xususiy sektor manfaatlari örtasida aloqalar şakllanadi.

Raqamli diplomatiya AQŞning mintaqadagi diplomatik vakolatxonalari va rasmiy vakillari uçun jamoatçilik bilan bevosita muloqot qiliş, taşqi siyosiy taşabbuslarni tuşuntiriş va axborot tarqatiş imkoniyatlarini kengaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali olib boriladigan kommunikatsiya rasmiy bayonotlar va an'anaviy ommaviy axborot vositalari xabarlarini töldiradi. Blogerlar va inflyuenserlar bilan hamkorlik ham muayyan auditoriyaga yetib boriş imkonini beradi. Biroq bunday şaxslarni diplomatik vakil sifatida emas, balki jamoatçilik bilan aloqalarning qöşimça kommunikatsion iştirokçilari sifatida baholaş töğri böladi.

Ekspert va norasmiy diplomatiya doirasida tahlil markazlari, ilmiy muassasalar, universitetlar va fuqarolik jamiyati vakillari örtasidagi muloqot muhim örin tutadi. "Track II" diplomatiyasi rasmiy muzokaralar örnini bosmaydi, ammo murakkab masalalarni norasmiy, ehtimol erkinroq muhitda muhokama qiliş, muqobil takliflarni işlab çiqiş va özaro anglaşuv va tuşunişni kengaytiriş hamda manfaatli murosa nuqtalarini izlab topişga xizmat qilişi mumkin.

AQŞ–Markaziy Osiyo munosabatlarida an'anaviy va zamonaviy diplomatiya vositalari bir-birini töldiradi. Rasmiy diplomatik aloqalar va hukumatlararo muzokaralar hamkorlikning institutsional asosini taşkil etsa, jamoatçilik, iqtisodiy, ta'lim, raqamli va ekspert diplomatiyasi uning iştirokçilari hamda kommunikatsiya kanallarini kengaytiradi.

Dastlabki xulosalar. An'anaviy va zamonaviy diplomatiya vositalarining dastlabki qiyosiy tahlili diplomatiyaning tarixiy rivojlanişi uning asosiy institutsional vazifalarini hanuz dolzarb ekanligini körsatadi. Elçilik, diplomatik vakillik, muzokaralar, rasmiy yozişmalar, protokol va davlatlararo kelişuvlar zamonaviy xalqaro munosabatlarda ham öz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Zamonaviy diplomatiyaning asosiy farqi esa uning iştirokçilari, vositalari va kommunikatsiya kanallari kengayganida namoyon böladi. Jamoatçilik diplomatiyasi, "yumşoq kuç", raqamli kommunikatsiya, iqtisodiy va ta'lim diplomatiyasi hamda "Track II" kabi mexanizmlar davlatlarning taşqi siyosiy maqsadlariga erişiş imkoniyatlarini kengaytiradi.

AQŞ–Markaziy Osiyo munosabatlari uşbu jarayonning amaliy misoli bölib, unda ikki tomonlama diplomatik aloqalar va köp tomonlama C5+1 platformasi, şuningdek, ta'lim, iqtisodiyot, xavfsizlik, jamoatçilik va raqamli kommunikatsiya

yönalişlari özaro uyğunlaşadi. Biroq uşbu vositalarning qöllaniş darajasi va samaradorligi mintaqaning har bir davlati bilan munosabatlarda alohida tahlil qilişni taqozo etadi. Demak, zamonaviy diplomatiya an'anaviy diplomatiyaning muqobili emas. U davlat sentrizmini saqlagan holda köp aktorli, köp kanalli va texnologik jihatdan kengaygan diplomatik faoliyat modelini şakllantirib bormoqda. Şu nuqtayi nazardan, AQŞ–Markaziy Osiyo munosabatlarini örganişda diplomatik vositalarni ham alohida, ham yagona va özaro boğliq tizim sifatida tahlil qiliş maqsadga muvofiqdek körinadi.

Adabiyotlar röyxati:

1. Berridge Geoffrey Raymond. Diplomacy: Theory and Practice. 6th ed. Çam: Palgrave Macmillan, 2022.

2. Bjola Corneliu, Manor Ilan (eds.). The Oxford Handbook of Digital Diplomacy. Oxford: Oxford University Press, 2024.

3. Bull Hedley. The Anarçical Society: A Study of Order in World Politics. London: Macmillan, 1977.

4. Callières François de. On the Manner of Negotiating with Princes: On the Uses of Diplomacy; the Çoice of Ministers and Envoys; and the Personal Qualities Necessary for Success in Missions Abroad. Translated by Alexander Frederick Whyte. Boston and New York: Houghton Mifflin Company, 1919.

5. Collins Stephen D., DeWitt Jeff R., LeFebvre Rebecca K. Haştag Diplomacy: Twitter as a Tool for Engaging in Public Diplomacy and Promoting US Foreign Policy // Place Branding and Public Diplomacy. 2019. Vol. 15. P. 78–96.

6. Cull Niçolas John. Public Diplomacy: Taxonomies and Histories // The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science. 2008. Vol. 616, No. 1. P. 31–54.

7. Hocking Brian, Melissen Jan, Riordan Şaun, Şarp Paul. Futures for Diplomacy: Integrative Diplomacy in the 21st Century. The Hague: Netherlands Institute of International Relations Clingendael, 2012.

8. Kissinger Henry Alfred. Diplomacy. New York: Simon & Sçuster, 1994.

9. Melissen Jan (ed.). The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005.

10. Nicolson Harold George. Diplomacy. London: Oxford University Press, 1939.

11. Nye Joseph Samuel Jr. Public Diplomacy and Soft Power // The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science. 2008. Vol. 616, No. 1. P. 94–109.

12. Sandre Andreas. Twitter for Diplomats. DiploFoundation; Istituto Diplomatico, 2013.

13. Satow Ernest Mason. A Guide to Diplomatic Practice. London: Longmans, Green and Co., 1917.

14. Sharp Paul. Diplomatic Theory of International Relations. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

15. Watson Adam. Diplomacy: The Dialogue Between States. London: Eyre Methuen, 1982.